Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · "Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317870

logistika va boshqa ko`plab sohalarda sinergetik samaralarga erishishning ilmiy asoslari xo`jalik faoliyatiga tatbiq etib, amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1.Mirziyoyev SH.M. Yangi O`zbekiston strategiyasi/-Toshkent: "O`zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b., 41-b. ISBN 978-9943-3-6.;

2.Волков С.А."Сергей Волков: для того чтобы начался рост экономики в инновационном секторе, нужно создать критическую массу изменений и в общественных институтах, и в головах" М.-"Профи-Пресс", журнал: БОСС/ Бизнес: организация, стратегия, системы/. Январь 2014, 60-стр.

3.Эрматов И.Н. Эффективность регионального АПК: методы измерения и оценки. Монография. Т.-"Мехнат", 1988. – 128 с., 11-стр.;

4.Абдурахманов К.Х., Одегов Ю.А. и авт.колл. Экономика труда. Уп. Т.: Филиал ГОУ ВПО "РЭУ им. Г.В. Плеханова" в г.Т., 2011. – 448 с.,291-стр,;

5.https://yuz.uz/ru/news/sinergeticheskiy-effekt-vnedrenie-dostijeniy-nauki-v-kajduyu-sferu-i-uskorenie-ee-integratsii-s-proizvodstvom;

6.Волгин Н. Экономику Японии вывела вперед не техника а человек. Журнал: Человек и труд. 5/98., 90-с.

7.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova. O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi;

8.Israilov Z.A. O`zbekistonda oliy ta`lim muassasalari faoliyatini "THE" xalqaro reytingi orqali baholashning ta`lim sifati uchun ahamiyati va uning o`ziga xos muammolari. Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali. №1, 2022 y., 263-b.

ANDIJON VILOYATI HUDUDIY SANOAT TARMOG'INING RIVOJLANISHDA PERSONALNI BOSHQARISH HOLATINI VA O'ZGARISH TENDENSIYALARI.

O.X.Maxmudov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti,professori,
Iqtisod fanlari doktori
E-mail: maxmudovodiljon1965@gmail.com

Iqtisodiyotning sanoat tarmog'ida, jumladan yengil sanoat tarmog'ida personalni boshqarish holatini aniqlash, bu yo'nalishni rivojlantirish tendensiyasini aniqlash,

Published: 24.05.2025

Cite this article: O.X.Maxmudov (2025). Andijon viloyati hududiy sanoat tarmog'ining rivojlanishda personalni boshqarish holatini va o'zgarish tendensiyalari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317870

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ushbu tarmoqning respublikamiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni, YaIMdagi hissasi, o‘rganilayotgan hududning respublika YaIMdagi ulushi, unda o‘rganilayotgan tarmoqning tutgan o‘rni, uning o‘zgarish dinamikasi, o‘zgarish holatlari, unga ta’sir yetuvchi omillarni har tomonlama, chuqur o‘rganish muhimdir. Har qanday davlatning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash uchun ushbu davlatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmini o‘zgarish darajasini bilish zarur. Andijon viloyatining 2011–2024-yillar oralig‘ida ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasini respublika ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy taqqoslaymiz. Shu sababli respublika bo‘yicha yaratilgan jami sanoat mahsulotini viloyatlar bo‘yicha qiyosiy taqqoslaganda uning asosiy qismi Toshkent shahriga 19,1%, Toshkent viloyatiga 18,4%, Navoiy viloyatiga 16,3% hamda Andijon viloyatiga 8,0% to‘g‘ri kelgan. Bu tendensiya 2011-2024-yillar oralig‘ida saqlanib qolganligini ko’rishimiz mumkin.

Viloyatda hududiy mahsuloti mamlakat yalpi ichki mahsulotining 2011-yilda 6,0% ini tashkil yetgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichning salmog‘i 5,9% yoki 0,1% ga pasaygan. Respublika yalpi ichki mahsuloti ko‘rilayotgan 15 yil davomida 7,1 marta o‘sib, o‘rtacha yillik o‘sish darajasi 6,4%ga to‘g‘ri kelgan. Andijon viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot 2011-2024-yillar davomida 7,08 marta o‘sib, o‘rtacha yillik o‘sish darajasi 6,4% bo‘lgan. Ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish asosida Andijon viloyati yalpi hududiy mahsulotining umumiy o‘sish darajasi mamlakat ko‘rsatkichi bilan deyarli tengligini, o‘rtacha o‘sish darajasi yesa tengligini ko‘rish mumkin[23].

Viloyat miqyosida hudud iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi mamlakat darajasidan bir oz pastroq bo‘lgan. Xususan, o‘tgan 15 yil davomida viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 11,7 marta o‘sgan. 2011yildagi 1037,2 mlrd. so‘m investitsiya hajmi 2024-yilga kelib 12143,7 mlrd so‘mga yetgan. Viloyat bo‘yicha hududiy iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmining 15 yil davomidagi o‘sish darajasi 10,8 martani tashkil yetgan bo‘lib, viloyat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarning o‘sish darajasi 2017-yildan boshlab keskin o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, 2017-2021-yillar oralig‘ida hudud iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi darajasi 4,0 baravarga ko‘paygan.

Andijon viloyati bo‘yicha 2011-yilda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning fizik hajmi 626,5 mlrd.so‘mni, 2021-yilda yesa 7881,1 mlrd.so‘mga yetgan. Jumladan, respublika jami yengil sanoat mahsulotini yesa 9,3%ni aynan biz

[23] *https://sputniknews-uz.com/20211018/ozbekiston-hududlaridagi-aholi-soni-malum-qilindi-20956701.html*

taxlil qilayotgan obyektga ta’lluqlidir. Viloyat bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan jami yengil sanoat mahsulotlarini respublika ko‘rsatkichidagi ulushi yesa oxirgi yillarda o‘rtacha 15%ni tashkil yetgan.

Viloyatimizda respublika yengil sanoati tarmog‘i bo‘yicha Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy viloyatlaridan keyingi o‘rinlarda turadi. Yengil sanoat tarmog‘ida yaratilgan ko‘rsatkichning o‘sish sur‘atiga taqqoslanganda, viloyat ko‘rsatkichi mamlakat darajasidagi ko‘rsatkichdan 5,1 marta ko‘p o‘sgan. Andijon viloyatida yaratilgan yengil sanoat mahsuloti mamlakat darajasidagi ko‘rsatkichi 9-15%ini tashkil yetib, yillar davomida barqaror o‘sish darajasiga yerishgan va 2024-yildagi ulushi 2011-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 16,0%ga ortgan.

2011-yilda respublika bo‘yicha jami soni yengil sanoatda bandlar soni 594 ming kishini, jami sanoatda band bo‘lgan xodimlarni 36,2 %ini tashkil yetgan. 2021-yilga kelib yesa respublika bo‘yicha jami soni yengil sanoatda bandlar soni 774,7 ming kishini, jami sanoatda band bo‘lgan xodimlarni 40,7 %ini tashkil yetgan. Tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, respublika bo‘yicha olinganda yengil sanoatda band bo‘lgan xodimlar soni jami sanoatda band bo‘lgan xodimlar tarkibida asta-sekin o‘sib borish tendensiyasiga yega.

Viloyatimizda 2011-yilda jami iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar soni 1169,1 ming kishini, sanoat tarmog‘ida band bo‘lganlar soni 810,3 ming kishini hamda nisbiy ko‘rsatkichlarda 69,3%ni tashkil yetgan. Sanoatda band bo‘lgan xodimlardan 310,8 ming xodim yengil sanoat tarmog‘ida band bo‘lgan va uning nisbiy ko‘rsatkichlarda 38,3%ni tashkil yetgan. Bu ko‘rsatkich asta-sekin o‘sib borish tendensiyasiga yega bo‘lgan va 2024-yilda 46,0%ni tashkil yetgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, Andijon viloyatida yengil sanoatni yanada rivojlantirish asosida bu tarmoqda band bo‘lgan xodimlar sonini va ularning turmush darajasini yanada oshirish mumkin.

Viloyat hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmining o‘zgarishi asosan sanoat uchun qulay hisoblangan hududiy birlik (shahar va tuman)larning tarmoq uchun qulay sharoitlariga bog‘liq holda yuz bergan (1-jadval). Viloyatga qarashli ikkita shaharda, ya’ni Andijon va Xonobod shaharlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi umumiy miqdor jihatidan kamayish tendensiyasiga yega bo‘lgan. Xonobod shahrining viloyat yalpi hududiy sanoat mahsuloti hajmidagi ulushi o‘tgan 10 -yil davomida 0,1% ga oshgan, Andijon shahrining ulushi yesa 2,1%ga kamaygan.

Asaka tumani sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi bo‘yicha viloyatda yetakchi o‘ringa yega. Asaka tumanida 2011, 2018-2019-yilllarda bu ko‘rsatkich viloyatda 62%ni, 2012-2013-yillarda o‘rtacha 64%ni, 2024-yilda yesa 48,9%ni tashkil yetgan.

Tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlili sohani rivojlantirish uchun mavjud zaruriy resurslar hamda tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarishning intensiv rivojlantirish omillari hisobiga yalpi hududiy sanoat mahsulotidagi ulush bo‘yicha yeng past ko‘rsatkichlar Bo‘ston (0,8%), Buloqboshi (1,0%), Ulug‘nor (1,2%), Paxtaobod (1,7%) tumanlarida bo‘lgan. Vaholanki, bu tumanlarda ham sanoat, shu jumladan yengil sanoat tarmog‘ini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

1-jadval.

Andijon viloyati hududlari bo‘yicha 2011-2024 -yillarda sanoat ishlab chiqarishi hajmining o‘zgarishi, %da[24]

№	ko‘rsatkichlar	Yillar							
		2011	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
1	Andijon viloyati	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
2	Andijon shahri	18,5	21,5	24,6	19,6	15,9	14,8	16,7	16,4
3	Xonobod shahri	5,2	4,3	5,1	4,6	3,5	3,6	3,4	5,3
4	Tumanlar:								
5	Oltinko‘l	0,8	2,0	3,8	2,8	1,7	1,5	1,8	2,0
6	Andijon	2,3	3,2	5,3	4,0	2,7	2,3	2,6	2,7
7	Baliqchi	1,1	3,2	4,8	3,1	1,9	2,0	2,1	3,6
8	Bo‘ston	0,4	0,9	1,5	0,7	0,5	0,9	0,9	0,8
9	Buloqboshi	0,2	1,0	1,9	1,3	0,7	0,8	0,9	1,0
10	Jalaquduq	1,1	2,2	3,1	2,4	1,5	1,4	2,1	2,6
11	Izboskan	1,5	2,0	2,7	2,5	1,7	1,2	2,3	2,7
12	Ulug‘nor	0,6	0,8	1,1	0,7	0,5	0,6	0,7	1,2
13	Qo‘rg‘ontepa	1,1	2,4	3,2	1,8	1,2	2,2	2,7	3,5
14	Asaka	62,4	47,9	29,7	47,4	62,3	62,7	57,1	48,9
15	Marhamat	0,9	1,8	2,4	1,5	1,0	1,0	1,1	1,5
16	Shahrixon	2,3	3,6	5,6	4,0	2,4	2,1	2,2	2,9
17	Paxtaobod	0,3	1,0	1,6	0,9	0,6	1,1	1,0	1,7
18	Xo‘jaobod	1,2	2,3	3,7	2,8	2,0	1,8	2,4	3,1

[24] http://andstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2 *asosida muallif hisob-kitobi*

Yalpi hududiy sanoat mahsulotidagi ulush miqdori bo‘yicha 2021-yilda yeng yuqori ko‘rsatkichlarga Asaka tumani (48,9%) va Andijon shahri (16,4%) yega bo‘lgan. Undan keyingi o‘rinlarni Xonobod shahri (5,3%), Baliqchi tumani (3,6%), Qo‘rg‘ontepa tumani (3,5%) va Xo‘jaobod tumani (3,1%) yegallagan bo‘lib, ularning ulushi viloyat bo‘yicha anchagina past ko‘rsatkichga yega.

Shu bilan birga Andijon viloyati tumanlarida yengil sanoatning to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish asosida tumanlarning imkoniyatlarini va rivojlanish darajasini batafsil o‘rganish mumkin. Buning uchun 2-jadval ma’lumotlaridan foydalanamiz. 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Andijon viloyati bo‘yicha 2024-yilda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha viloyatda Baliqchi tumani (17,1%), Qo‘rg‘ontepa tumani (17,1%), Andijon shahri (12,7%), Shahrixon tumani (10,4%), Izboskan tumani (10,3%) yetakchi o‘rinni yegallagan. Shu yili kiyim ishlab chiqarish bo‘yicha viloyatda Xo‘jaobod tumani (24,7%), Andijon shahri (15,7%), Xonobod shahri (10,0%), Oltinko‘l tumani (8,8%) yetakchi o‘rinni yegallagan. Andijon viloyati bo‘yicha 2024-yilda to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish bo‘yicha Andijon shahri (28,4%) va Xo‘jaobod tumani (25,1%) yetakchi o‘rinni yegallagan. Xo‘jaobod tumanida ayniqsa yengil sanoatning kiyim ishlab chiqarish yo‘nalishi juda rivojlangan bo‘lib, viloyatda yeng yuqori ko‘rsatkichiga yega. Tumanda hali foydalanilmayotgan imkoniyatlar va resurslarni ishga tushirish asosida ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish mumkin. Bu yesa tumanda aholining ish bilan bandligini va pirovard natijada aholi turmush darajasini oshirishga imkon beradi.

Paxtaobod tumani to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha viloyatda yeng oxirgi o‘rinlardan birini yegallaydi.

2020-yilgi koronavirus pandemiyasi sababli barcha hududlar qatori Paxtaobod tumanida ham qator iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolar kuzatilgan bolib, ko‘plab ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlarining o‘sish tendensiyasi sezilarli darajada pasaygan. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiya 390,4 mlrd. so‘mdan 346,1 mlrd. so‘mga, tashqi savdo aylanmasi 22,6 mln dollardan 18,9 mln dollarga, tovar va xizmatlar yeksporti 14,7 mln dollardan 11,6 mln dollarga va mahalliy budjet daromadlari 64,6 mlrd. so‘mdan 40,5 mlrd. so‘mga tushib ketgan.

2-jadval.

Andijon viloyati bo‘yicha 2024 -yilda to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish bo‘yicha tumanlarning ulushi, %da[25]

[25] https://andstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2 *asosida muallif hisob-kitobi*

№	ko‘rsatkichlar	to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	kiyim ishlab chiqarish	Jami
1	Andijon viloyati	100,0	100,0	100,
2	Andijon shahri	12,7	15,7	28,4
3	Xonobod shahri	3,5	13,0	16,5
	Tumanlar:			
4	Oltinko‘l	2,8	8,8	11,6
5	Andijon	1,7	6,1	7,8
6	Baliqchi	17,1	1,8	18,9
7	Bo‘ston	2,4	0,8	3,2
8	Buloqboshi	0,3	2,7	3,0
9	Jalaquduq	6,6	6,1	12,7
10	Izboskan	10,3	2,3	12,6
11	Ulug‘nor	5,7	1,4	7,1
12	Qo‘rg‘ontepa	17,1	2,2	19,3
13	Asaka	3,6	4,1	7,7
14	Marhamat	3,4	4,6	8,0
15	Shahrixon	10,4	3,1	13,5
16	Paxtaobod	2,1	2,7	4,8
17	Xo‘jaobod	0,4	24,7	25,1

Xulosa qilib aytganda, Andijon viloyati yengil sanoat tarmog‘ini yaqin va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish bo‘yicha maqsadga muvofiq o‘rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish jarayonida yuqoridagi tahlillar asosida aniqlangan o‘zgarish tendensiyalarini hisobga olinishi tarmoqni ilmiy asoslangan holda rivojlantirishda bu tarmoqda band bo‘lgan xodimlar sonini maqbullashtirishda muhim ahamiyatga yega.